

**BILGA XOQON OBRAZI TALQININING TARIXIY VA BADIY ASOSLARI:
MILLIY O‘ZLIK VA DAVLATCHILIK G‘OYALARINING IFODASI****Azimjonov Husnidin Ibrohim o‘g‘li,***Alisher Navoiy nomidagi**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistri*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romanida tarixiy shaxs obrazi badiiy talqinining o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Bilga Xoqon siymosining turkiy yozma yodgorliklaridagi ildizlari, uning zamonaviy adabiyotdagi qayta talqini hamda milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati yoritiladi. Asarda tarixiy voqelik va badiiy tafakkur uyg‘unligi, qahramon psixologizmi, davlatchilik g‘oyalari va xalq birligi konsepsiyasi izchil ochib berilgan. Shuningdek, romanning ma’naviy-estetik qiymati, uning bugungi jamiyat uchun ibratli jihatlari ham ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Bilga xoqon, tarixiy roman, turkiy adabiyot, milliy o‘zlik, badiiy talqin, davlatchilik g‘oyasi, tarixiy xotira, psixologizm, birlik konsepsiyasi.

Annotation. This article provides a scholarly analysis of the artistic interpretation of the historical figure Bilga Khagan in Isajon Sulton’s novel “Bilga Khagan.” The study examines the roots of the image in Turkic written monuments, its reinterpretation in modern literature, and its role in shaping national identity. Particular attention is given to the harmony between historical reality and artistic imagination, the psychological depth of the protagonist, and the concepts of statehood and unity. The article also highlights the spiritual and aesthetic significance of the novel and its contemporary relevance.

Keywords: Bilga Khagan, historical novel, Turkic literature, national identity, artistic interpretation, concept of statehood, historical memory, psychologism, unity.

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ художественной интерпретации исторической фигуры Бильга-хагана в романе Исаджона Султона «Бильга-хаган». Исследование рассматривает истоки образа в тюркских письменных памятниках, его переосмысление в современной литературе и его роль в формировании национальной идентичности. Особое внимание уделяется гармонии между исторической реальностью и художественным воображением, психологической глубине главного героя, а также концепциям государственности и единства. В статье также подчеркивается духовное и эстетическое значение романа и его актуальность в наше время.

Ключевые слова: Бильга-хаган, исторический роман, тюркская литература, национальная идентичность, художественная интерпретация, концепция государственности, историческая память, психологизм, единство.

Kirish. Turkiy xalqlar tarixida Bilga Xoqon siymosi muhim va o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U nafaqat yirik sarkarda va kuchli davlat arbobi sifatida, balki jamiyatda ma’naviy birlikni ta’minlovchi, adolat va donolik g‘oyalarini mujassam etgan tarixiy shaxs sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli mazkur obraz turkiy xalqlar madaniyati, xususan, adabiyot va san’atida uzoq davrlar davomida turli badiiy shakllarda talqin etib kelinmoqda. Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani ana shu tarixiy siymoga zamonaviy badiiy-estetik yondashuv asosida murojaat qilgan asarlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda tarixiy voqelik va badiiy tasavvur uyg‘unligi ta’minlanib, xalq ruhiyati, vatanparvarlik, donolik hamda birlik g‘oyalari izchil va ta’sirchan ifodalangan. Muallif tarixiy manbalarga tayanib, ularni badiiy qayta ishlash orqali Bilga Xoqon obrazini nafaqat tarixiy shaxs, balki ijtimoiy-ma’naviy ideal darajasiga ko‘targan. Shuningdek, Bilga

Xoqon obrazi turkiy xalqlar adabiyotida ham turli davr va janrlarda o'ziga xos tarzda aks etgan. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotda ushbu timsol milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash hamda ma'naviy merosni qadrlashning muhim ramziga aylangan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotda Bilga Xoqon obrazining turkiy adabiyotdagi badiiy talqinlari, Isajon Sulton romanidagi ifodasi hamda zamonaviy nasr va nazmdagi aks-sadosini ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilib qo'yiladi. Bilga Xoqon obrazi turkiy yozma yodgorliklar kontekstida, avvalo, davlatni tiklovchi, tartib va qonunni mustahkamlovchi, xalqni "eshushga keltiruvchi" hukmdor modelida talqin etiladi. Orxon-Enasoy bitiklarida hukmdor shaxsiy fazilatlar bilan emas, "el" va "törü" (tartib-qonun) oldidagi mas'uliyati bilan ulug'lanadi; hukmdor nutqi ko'pincha pand-nasihat, tarixiy saboq va siyosiy ogohlantirish ohangida quriladi. Bu holat Bilga Xoqon obrazining badiiy genetik manbaini ko'rsatadi: obrazning markazida shaxsiy manfaat emas, "xalq taqdiri" turadi. Mazkur fikrni keltirishning ilmiy-asosiy ma'nosi shuki, romandagi qahramon psixologizmi ham aynan shu "davlat va xalq oldidagi vijdon" g'oyasiga suyanib badiiylashtiriladi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy adabiyotda Bilga Xoqon timsoli ko'pincha milliy o'zlikni mustahkamlash, tarixiy xotirani yangilash va davlatchilik tafakkurini badiiy qayta qurish vazifalarini bajaradi. Chunki yangi davr o'quvchisi uchun qadim hukmdor siymosi "mif" bo'lib qolmasdan, bugungi ma'naviy ehtiyojlar bilan bog'langan "o'zlik ko'zgusi"ga aylanadi. Bu yerda "o'zlik ko'zgusi" degan tushuncha shuni anglatadiki, obrazning badiiy qiymati tarixiy faktni ko'paytirish bilan emas, tarixiy tajribani zamonaviy ong tiliga ko'chirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Isajon Sulton romanidagi Bilga Xoqon talqini turkiy manbalardagi "davlat boshlig'i-xalq mas'uliyati" paradigmasini saqlagan holda, uni psixologik roman talablari asosida namoyon qiladi. Ya'ni, qadim bitiklardagi deklarativ-siyosiy nutq romanda ichki monolog, ikkilanish, xotira va ruhiy tanlov ko'rinishlariga aylantiriladi. Bu o'zgarish badiiy texnika nuqtayi nazaridan juda muhim: "tarixiy qahramon" oddiy "buyuklik bayoni" bilan emas, qaror oldidagi ruhiy zo'riqish, shubha va vijdon sinovi bilan tiriklashadi. Bilga Xoqon obrazining shakllanish omillaridan biri sifatida turkiy dunyoqarashdagi "el" tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. "El" faqat etnik birlik emas, balki siyosiy-axloqiy makon: birlashish, tartib, adolat va mas'uliyat tizimi. Roman qahramoni ham o'zini "shaxs" sifatida emas, "elning yukini ko'targan ong" sifatida his etgani sababli uning ichki nutqida doimo umumiylik (xalq), davomiylik (avlod), vaqt (tarix) kategoriyalari faol ishlaydi. Ushbu dalilni keltirishdan maqsad – milliy ruhiyat romanda "individual romantika" emas, kollektiv taqdir bilan bog'langan psixologik holat sifatida namoyon bo'lishini asoslashdir.

Natijalar. Bundan tashqari, obrazni shakllantiruvchi ikkinchi omil – tarixiy xotiraning badiiy rekonstruksiya. Tarixiy romanlarda rekonstruksiya ikki xil yo'nalishda kechadi: (a) faktografik (sana, joy, shaxslar tizimi), (b) ma'naviy-ruhiy (davrning qo'rquvi, orzusi, e'tiqodi, siyosiy tilining ichki "ohangi"). Isajon Sulton aynan ikkinchi

yo‘nalishni kuchaytirib, tarixni “kuzatilgan hodisa” emas, “his qilingan taqdir” sifatida beradi.

Isajon Sultonning “Bilga xoqon” tarixiy romani qadimgi turkiy xalqlarning murakkab va rang-barang hayotini, ularning mardlik, jasorat, vatanparvarlik hamda to‘g‘riso‘zlik kabi yuksak insoniy fazilatlarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Asarda faqat erkak qahramonlar emas, balki ayol obrazlarining ham irodali, qat‘iyatli, or-nomusli hamda yurt taqdiri uchun mas‘uliyatni his etadigan shaxslar sifatida gavdalantirilgani muallifning yangicha yondashuvini ko‘rsatadi.

Asarning markazida turgan Bilga xoqon obrazi oddiy hukmdor darajasidan ancha yuqori talqin etiladi. U uzoqni ko‘ra oladigan, har bir qarorini puxta o‘ylab qabul qiladigan, xalqining ertangi kuni uchun fidoyilik ko‘rsatishga tayyor, or-nomusni hayotiy mezon darajasiga ko‘targan buyuk shaxs sifatida aks ettiriladi. Qahramon har qanday sharoitda ham o‘z xalqini adolat, haqiqat va to‘g‘rilik yo‘liga boshlovchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ichki dunyosi ezgulik, poklik va yurtga muhabbat bilan sug‘orilgan holda tasvirlanadi.

Romanda tarixiy voqelik va badiiy tasavvur o‘zaro uyg‘unlashib, qadimgi turkiy jamiyatga xos davlatchilik qarashlari, o‘zaro hurmat, sadoqat va fidoyilik kabi qadriyatlar chuqur ochib beriladi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy mazmundagi epik asar sifatida, balki bugungi avlod uchun ma‘naviy ibrat bo‘la oladigan, milliy ruh va o‘zlikni anglashga xizmat qiluvchi muhim adabiy manba sifatida baholanadi.

Zamonaviy adabiyotshunosligimizning bugungi davrida nasrda faol ijod qilayotgan, asarlari turli xil tillarda va mamlakatlarda nashr etilib, nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘layotgan o‘zbekning zabardast ijodkori Isajon Sulton ijodida tarixiy mavzudagi romanlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ijodkorning 2022-yilda chop etilgan “Bilga xoqon” romani mavzu va uslub jihatidan o‘zbek adabiyotida e‘tirof etishga arzigulik hodisaga aylandi. Asar mavzusi o‘zbek adabiyoti uchun yangi yo‘nalishlardan bo‘lib, 2015- yilda Rahimjon Otauli qalamiga mansub “Bilga xoqon” dostonidan so‘ng bu mavzudagi ikkinchi yirik ijod namunasi hisoblanadi. Ushbu romanga so‘zboshi yozar ekan, ustoz Dilmurod Qurinov shunday deydi: “... klassik romanlardagi kabi bunda ham bosh qahramon – vosita. Unda qalamga olingan davr butun ziddiyat va murakkabligi bilan anglash hamda u haqdagi yaxlit konsepsiyani ifodalash maqsadi ustuvor. Shu maqsadga muvofiq tarzda turkiylar tarixidagi muhim bir bosqich keng ko‘lamda tasvirlangan. Undagi ma‘qul va noma‘qul holatlar xolis tasvirlanib, ularning sabab va oqibatlari ochilgan, bugunimiz uchun ibratli jihatlar ajratib ko‘rsatilgan”. Shuningdek, adabiyotshunos olim N. Rahmonov “Mangu bitiktoshlar ilhomi” maqolasida romanning afzalliklari haqida so‘z yuritar ekan, uning tarixiylik tamoyiliga asoslanib yozilganini alohida ta‘kidlaydi. Rahmonovning fikricha, yozuvchi ortiqcha dabdababozlik va romantik kayfiyatlarga berilmagan, Bilga xoqon, To‘nyuquq va Kul Tigin obrazlarini ideallashtirmay, ularning haqiqiy qiyofasini yaratishga intilgan. Asar davomida Bilga

xoqonning boshqa xoqonlardan farqli jihatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Turkiylar qanday og‘ir vaziyatga tushmasin, yaqinlarining jasadlarini dushman qo‘liga topshirmaslikka, o‘g‘il-qizlarini asirlikdan ozod qilishga intilganliklari batafsilifodalanadi. Boshqa xoqonlar esa o‘z jonini saqlab qolish maqsadida oddiy xalqni qurbon qilishgan va bundan zarracha afsus chekmaganliklari aniq aks ettirilgan. Haqiqiy turklarga xos urf-odatlar tasvirlangan bu romanda Isajon Sulton turkiylarga xos muhabbatni ham hech chetda qoldirmaydi. Sevgining botirlik, qo‘rqmaslik, oltin-kumush, yilqi, mansab yoki tashqi chiroy, latofat, qaddi-qomat, shirinsuxanlik, muloyimlik yoxud xushomadga emas, balki faqat yurakdan chiqqan sof tuyg‘ularga asoslanishini Ishbara Yamtar obrazi misolida yoritib o‘tadi. U ovlab kelgan kiyik go‘shidan bir parchasini Suluvga berib kelishi tasviri orqali sof, chapani, sodda tuyg‘ularning naqadar ulug‘vorlik kasb etgani ko‘rsatilgan: “Ishbara to‘pdan ayrilib, temir o‘choq boshida kuymalanayotgan xotinlarga qarab yurdi. Qo‘yniga so‘ngak solib olgan edi. Ko‘zi xotinlar orasidan bolta bilan o‘tin yorayotgan to‘la jussali, oy yuzli bir qizni ayirib oldi. O‘zicha qizarib: “Kunsuluv,-deb chaqirdi yetib borar-bormas. Ko‘ngli etni qizga berishni tilagan edi, qarasa, xotinlar orasida bunday qilib bo‘lmas ekan. Shuning uchun Kunsuluvni beriroqqa chorlagisi keldi. Qiz Ishbaraga yalt etib qaradi. Xotinlar kulib yuborishdi. – Yigit bo‘lmay o‘l, - deyishdi.- Ichingga osh kirib tirilib, suluvni chaqiryapsanmi? – Bor-e, ne deyapsan? – deb to‘ng‘illadi Ishbara. – Ov ovlagan men, sudrab kelgan men, bir parcha et bersam, nima qipti? – Ber, ber, – kulishdi yana xotinlar. – Qiz baribiram senga tegmaydi. Turumingni qara, ayiqdaysan. – Ayiqday bo‘lsam nima? Asrab olib yurarman! – Asrashing ne, bu sho‘rlik qorningni qanday to‘ydiring? Ishbara ularga bas kelolmasligiga ko‘zi yetib, so‘ngakni “Ma, ol, pishirib yersan” deb qiz yoniga, o‘tinlar ustiga tashlagan edi, nariroqda yotgan ikki bo‘ribosar o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Ishbara ularga “Tek yot”, deya to‘ng‘illab, o‘zi ortiga, erlar qoshiga qaytdi”. Romanda ilk bitikning yaratilishi, har bir odamning o‘z avlodlariga yaxshi nom qoldirishga harakat qilishi va shu yo‘l bilan o‘qish-yozishni egallab borgan xalqning shakllanishi batafsil tasvirlanadi. “Yo o‘lmoq, yo qolmoq” degan shior ostida jangga kirgan qahramonlar xoqonning dalda so‘zlari, el ishonchi va kuchli iroda bilan doimo zafar qozonadi. Bu g‘alabalarning barchasi Ko‘k Tangriga – yaratuvchiga bo‘lgan ishonch, xoqonning buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunish, bevaqt to‘kilgan vatandoshlar qoni va tutqundagi yurtdoshlarni ozod qilish yo‘lidagi fidokorona harakatlar bilan bog‘liq ekanligini namoyon qiladi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani tarixiy shaxs obrazini zamonaviy badiiy tafakkur doirasida qayta talqin etgan muhim adabiy hodisa hisoblanadi. Asarda qadimgi turkiy davlatchilik an‘analari, xalq birligi, vatanparvarlik va ma‘naviy mas‘uliyat kabi g‘oyalar chuqur badiiy ifodasini topgan. Bilga Xoqon obrazi orqali nafaqat tarixiy haqiqat yoritiladi, balki bugungi o‘quvchi ongida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ijtimoiy ong masalalari ham jonlantiriladi. Muallif tarixiy manbalarni ijodiy o‘zlashtirgan holda, ularni zamonaviy ruh va estetik mezonlar asosida qayta

shakllantirgan. Natijada asar nafaqat adabiy qiymatga ega bo'lgan badiiy matn, balki jamiyat uchun ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etuvchi ilmiy-estetik manbaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulton Isajon. *Bilga xoqon (roman, qissalar va hikoyalar)*. – Toshkent: Factor Books, 2022.
2. Rahmonov N. *Mangu bitiktoshlar ilhomi*. – Toshkent: O'zbekiston matbuoti.
3. Quronov D. *Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Akadernashr.
4. Otauli R. *Bilga xoqon (doston)*. – Toshkent, 2015.
5. Haydarov, A. *Tarixiy roman poetikasi*. – Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Karimov N. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi.
7. Zamonaviy adabiyotshunoslikka oid ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2020.
8. Pavlov I.A. Istoricheskiy roman: fakt i xudojestvennaya pravda / I.A. Pavlov // Vestnik gumanitarnix issledovaniy. 2020. – № 5. – B. 57.
9. Tursunova M.M. Milliy identitet va tarixiy xotira: adabiy talqinlar / M.M. Tursunova // Global ta'lim va milliy meros. 2024. – № 3. – B. 27.
10. Tekin T. Orhon yozitlari: metin, çeviri, inceleme / T. Tekin. – Ankara : Türk Dil Kurumu 2016. – 121.
11. Klyashtornyy S.G. Drevnetyurkskie nadpisi kak istochnik po istorii gosudarstvennosti / S.G. Klyashtornyy // Tyurkologiya. – 2018. – № 2. – B. 66.
12. Qodirov, D.Q. Isajon Sulton romanlarida psixologizm va tarixiy tafakkur / D.Q. Qodirov // O'zbek tili va adabiyoti. 2022. – № 4. – B. 44.
13. Usmonov J.J. Turkiy davlatchilik g'oyasi va zamonaviy badiiy tafakkur / J.J. Usmonov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – B. 90.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934